



BORIS PAK

**CHO'PCHAGIM
CHO'PCHAK**



She'rlar, topishmoqlar



*Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2007*

Koreys millatiga mansub rus tilida ijod qilib kelayotgan Boris Pak ko'p millatli Vatanimiz bolajonlarining sevimli shoirlaridan biridir. Shoir qalamiga mansub she'rlar ko'plab tillarga tarjima qilingan. Ularning aksariyatiga kuylar bastalangan.

Bolajonlarning sevimli shoiri Boris Pak bu yil qutlug' 75 yoshga to'ldi. Shu munosabat bilan tayyorlangan ushbu kitobchaga ijodkorning mohir tarjimonlarimiz tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan eng quvnoq, eng samimiy, kutilmagan voqea va hodisalarga boy she'r va topishmoqlari kiritildi. Ular Siz aziz bolajonlarga manzur bo'lishiga ishonamiz.

P 4306020600-120 / 360/04/-2007 - 2007

ISBN 978-9943-05-099-0

© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007- y.

SHUNDAY BIR O'LKA BOR

Shundayin bir o'lka bor:

billur shabnamlar

Tonggi quyosh nurida
tovlanar xil-xil.

Chortaraf moviy dala,
oppoq g'aramlar
Yurak kuylab yuborar,
erigay sang dil.

Shundayin bir o'lka bor:

har fasli ko'klam,

Turnalar — osmoniga
bitilgan satr.

Sadoqatli qizlari

durkun va ko'rkam,

Kutar, ko'ksida saqlab
yosh askar xatin.

Ulg'ayar alla bilan

unda har o'g'lon.

Qadim ertaklar ruhi
yashaydi qonda.

Bir qadam yiroq ketsang

nasibang — afg'on,

Baxting chin haqiqatdir

O'zbekistonda!

SO‘Z

O‘ltirardi uchovlon
Yigit. Qiz. Dengiz.
Yigit qizga so‘z aytdi birgina og‘iz.
So‘z qanot bo‘ldi-yu, yoyib qulochin
Uchdi qiz kulgusin marjondek sochib.
Uchdi va quyoshni lablari ila
Tuta ketdi tarqoq to‘lqinlar ichra,
O‘pdi — olov simirdi go‘yo,
Tomir-tomiriga quyildi ziyo.
So‘ng osmonni o‘pdi o‘tli nazari,
Osmon esa uning ko‘zlarin.
...Bo‘lganim bor dengiz bo‘yida
Qalbimga ayondir so‘z sehri, kuchi.
O‘shal so‘zni aytgim kelaru senga,
Aytolmayman biroq, bilmayman nechun?!

— 

TUN KUYI

Yomg'irga cho'mildi tun,
Bir go'zal sukut.
Osmon parchalari yo'llarda yotar,
Ko'lmaklarda g'uj-g'uj shu'lalar yonar.
Chopib borayapsan oyog'ing yalang
Yulduzlar gulzorin oralab
Kimsan? Tun qizimi? Samoviy malak?
Ayt, qayga shoshilding buncha jonhalak.
Kutganing bahormi —
Kutganing bormi,
Manziling uzoqmi, yaqinmi?
Sevib qoldim degin. Kutgali
Chiqdingmi barqi ishq — chaqinni?
Qara, qora yo'llar ko'ksiga
Quyildi yulduzlarning kumush torlari.
Nafasing tegsa, bas, jaranglab ketar,
Daf'atan his etding, hozir sen
Tun kuyin chalmoqqa qodirsan!

—

URUSH BILMASIN BOLALAR

Ko'p bahorlar o'tib ketdilar,
Zambaraklar tingandan buyon.
Ko'p bahorlar o'tib ketdilar!..
Ammo uyqum bezovta, yomon:
Tushlarimda qishlog'im bo'ylab
Qovoq uyib o'tar askarlar.
Olov yonar osmonni yalab,
Urush so'ngi ko'rinmas hamon!
Necha marta maysa ko'kardi
Zambaraklar tingandan buyon.
Necha marta maysa ko'kardi!
Lek onalar tushlari yomon:
Otalarni eng oxirgi bor
Tushlarida jangga kuzatar...
Go'yo qancha asrlar o'tdi,
Yo'lga boqar bevalar hamon!
Qancha-qancha bahorlar o'tdi
Zambaraklar tingandan buyon.
Unutmasimiz tinchlik va bahor
Uchun yurdik Elbaga tomon!
Bilmasinlar jangni go'daklar!
Onalarning ko'z yoshi bitsin.
Bolalarga doim kun chiqsin!
Tush ko'rsin xush, nurli, charog'on.

MAHLIYOMAN SENGA, VATANIM

Na xush erur hamal tonglari
Na xush erur zangori olam...
Na xush o'ychan qayin shoxlari,
Turnalarning parvozlari ham...
Bug'doyzorni ko'rib kuylar dil,
Ko'rib yuksak o't g'aramlarin.
Oydinlikda kuylar, kular dil,
Volga bo'ylab kezgan damlarim.
Sog'inaman seni jonajon,
Olislarda kezingan damim.
Qaytib kelsam dilda hayajon,
Mahliyoman yana, Vatanim!
Quvonch qamrar dilimni shunda,
Orom olar jon ila tanim.
Bunda ranglar ajibdir juda,
Naqadar soz mening Vatanim.

—
1978

MANGU OLOV HAQ'IDA

Qabr uzra ko'ramiz kelib
Olov yonar kecha-kunduzlar.
Ne deb so'zlar olovning tili?
U mangulik haqida so'zlar!

—

JONLI VELOSIPED

Ukam bilan qoldim,
Uni boshga oldim.
Kula-kula o'ldim,
Velosiped bo'ldim.
— Q'ani tez yur, — deydi,
O'zi patir yeydi.
Menga esa bermas.
Unday bo'lsa,
Aytay,
«Velosiped» yurmas.

—

QIYNALIB TOPILGAN NON

V. Skorodumovga

Yangi uzilgan non dasturxonimda,
Shunday chiroyli... qizarib pishgan —
Go‘yo tong parchasi uzilib tushgan...
Sarxush bo‘lib ketdim ushatganimda.

Tortib olgan bo‘lsang do‘stingdan — achchiq.
Non shirin — gar o‘zing o‘stirsang donni.
Ko‘nglimdagi gapni aytaymi ochiq:
Sevaman mehnat-la topilgan nonni.

O‘zing qilgan bo‘lsang o‘roq-mashoqni,
O‘zing tergan bo‘lsang har bir boshoqni —
O‘rtaga kelganda yangi pishgan non,
Bu nonmi, quyoshmi, dersan begumon.

—
1978

KETAYOTGAN TUN

Shoshmay asta ketayotir tun,
Darholgina kela qolmas kun.
Havo bo'g'iq... yalqov bir yomg'ir...
Tinim bilmay yog'moqda bugun —
Shitir-shitir, shitir-shitir.

Birdan chaqmoq gugurt chaqqanday,
Bir yaraqlab ketdi-ya qanday?!
Tepalardan jilg'alar oqar,
Kiftga qirqta kokil oqqanday,
Sharqirashi quloqqa yoqar.

Shunday boshlang, suvlar, janglarni,
Yuving kirlar, haydang changlarni —
Sizdan o'tlar bo'lar minnatdor,
Yuving eman va zaranglarni,
Sovuqlarda chekishgan ozor.

Yengil nafas olaylik biz ham —
Gilamlarni to'shasin ko'klam.
O, qaniydi ana shu yomg'ir
Bir yuvsaydi ko'ngillarni ham...
Yog', yomg'irjon, yog', shatir-shutir!

—
1978

BUXORO QOVUNI

Bir mo‘jiza ko‘rdim-u bugun
Hayratlarga ko‘mildim butun:
Taroziga sariq, dumaloq,
Issiq quyosh qo‘ndi-ya shundoq!
— Qovunmi shu? Rostdan qovunmi? —
Dedim bexos uyalib qizdek.
— Ha, «amiri» degan qovun bu! —
Javob berdi mirishkor o‘zbek.
So‘ngra egma pichog‘i bilan
Bo‘ldi uni yarimoylarga,
Tilimlarni uzatdi birdan
Men va kulib turgan «oy»larga.
O‘lay agar, shu qadar shirin,
Asaldan ham o‘tardi ta‘mi.
Kim aytadi betakror sirin —
Qanday bitar bularning jami?
Ko‘zlarimda aks etdi, chog‘i,
Ko‘nglim so‘rog‘i,
Dehqon dedi: — Buning vatani —
Buxoroning qutlug‘ tuprog‘i!

—

O‘RDAKCHA

Qizil etik kiyganday
Qir-qizil ikki oyoq...
Burni mimitdakkina,
Ikki ko‘zi — ko‘zmunchoq.
Yonda mudradi hovuz,
Pinakka ketgandi suv.
Qarab tursam, to‘satdan
Sakrab, suvga cho‘mdi u.
Qiziq mitti jo‘janing
Dum silkitib sho‘ng‘ishi...
Qachon buni o‘rgangan?
Hayron qolasan, kishi...
Ana, chualchang tutib
Chiqdi suvning ichidan!
Suzib kelib, silkindi
Maroqlanib ishidan.
Keyin qirg‘oqqa chiqib,
Lapanglab yurib ketdi.
O‘mrovini ko‘tarib
Qo‘noqqa kirib ketdi.

—

LOLALAR

Vuy, anavi tog‘larni!
Vuy, anavi qirlarni!
Ming-ming lola ochilib
Yasatibdi qirlarni.
Yaxshiyam qalam-qog‘oz
Ola kelgan ekanman,
Rasm solmay bo‘larmi
Chayqalib tursa chaman?!
Osmon uchun ko‘k qalam,
Qizil qalam lolaga,
Besh xilin ishlataman
Anov yurgan bolaga.
Rasmim chiqsa chiroyli
Asrab qo‘yib xonamga,
Keyin sovg‘a qilaman
Tug‘ilgan kun onamga.

—
لولا

NINA DALAGA BORDI

Nima qiziq bolaga?
Bola borar dalaga!
Polizga bordi Zina,
Ergashdi unga Nina...
Bir payt Nina qichqirdi,
Opasini chaqirdi:
— Manov qovunni qara!
Qovunmi, qovun sara!
Zina uni tingladi,
So‘ng birdan hirlingladi:
— Bu qovunmas! Bu — qovoq!
Bilmaysanmi, «Oshqovoq?»»

—

PIYOZ

Voy, bobojon, bobojon,
Kiyibdi o‘n besh chopon.
Yechintirsam yig‘latdi
Toki bo‘lguncha xufton.

— 

PINGVIN

— Men pingvinman, pingvinman,
Borligimdan mamnunman.
Xunuk e masman uncha,
Egnimda yangi nimcha.
Doim yuraman bashang,
Ko‘rganlar deydi: «Yashang».

—

TIRIK PANJARA

Obbo, Sanjar, Sanjar-a!
Deydi: — Tirik panjara!
Xo‘p kuldik, chalib qarsak,
Zebra ekan, qarasak...

—

TIPRATIKON

Anov kuni ti pratikon
Yo‘qotib bitta tikon,
Boshimizni qotirdi
Ko‘tarib shovqin-suron.
Qotib-qotib kuldi fil:
— O‘zim bo‘laman kafil —
Minglarcha tikoning bor,
O‘lmaysan shunga, baxill!

—

QO‘ZICHOQ

Tug‘ildi hozirgina,
«Be»lab ko‘rdi birgina,
Zo‘rg‘a turdi oyoqqa,
Chidolmadi charchoqqa —
Yumib oldi ko‘zini;
Yonboshini, yuzini
Yalar onasi shu choq.
Sut emgisi kelardi.
Shuning uchun «be»lardi,
Uning oti qo‘zichoq.

—

YALQOV

Uyimizda
Har kun tong,
Bo'ladi
Shovqin-suron.
Maktabiga
o'quvchilar
ketar jo'nab.
Nikolayni
turg'izolmay
hamma xunob.
Otam bo'lsa
karovatni
silkir tinmay.
Nikolay-chi
uxlayverar
parvo qilmay.
Javob bermay
deb oyimning
gapiga,
Boshin tiqar
yostig'ining
tagiga.
Qayda qoldi paypog'i?
Topmoq mahol,
Ko'ylagi ham yo'qolgan.
Aytng, ne hol?

Ochib ko'rib
sumkasini
Oyim deydi:
«Ana, tentak».
Sumkasidan
joy olibdi,
Qarmoq, langar
va po'kak.
Qayda qoldi
darsliklari?
Qalamdon-u
daftari?
Allaqachon
uloqtirgan,
Sarson bo'lmang
axtarib.
Har kun shunday
erta tongda
Bu kattakon
xonadonda
Qulog'ingga
chalinadi
manov so'zlar:
«uh», «voy», «ay».
Bunday yalqov
Hech yerda yo'q.
Shunday bizning
Nikolay.

— 212 —

BILIB OLAY DESANG

Dunyoda bor neki jonzot,
Ye mishi turli-tuman.
Yomon bo'lmas sizni, do'stlar,
Tanishtirsam bu bilan.
Ma'qul bo'lar tovuq uchun,
Barcha xili don-dunni.
Ozroqqina bo'r bersangiz,
Tezlatvorar tuxumni.
Burgutga-ku yoqar beshak
Ilon bilan kaltakesak.
Ursa agar
ko'ngliga bu
luqmalar,
Ye mdir unga
cho'lda boshqa
laqmalar.
Tangabaliq
hazil qilar
jo'rttaga
Va oqibat
ye m bo'ladi
Cho'rtanga.
Parvo qilmay
Lochin biror xatarga,
Tashlanadi
Tuvalog'u

Kaptarga.
Shira yoki
bo'lsa asal,
Asalari bo'lmas kasal.
Rosti Otning jonu-dili
Arpa, beda
hamda suli.
Maymunga-ku
bo'lsa yong'oq,
Har doimo
shodu quvnoq.
Mushuk neni xush ko'radi?
Qiyin emas javob topmoq.
Yalab rosa huzur qilar,
Bo'lsa agar sutu qaymoq.
Har qanchaki yantoq bo'lsa,
Tuya qilar zumda tamom.
Dunyoda yo'q uning uchun
Bundan ko'ra shirin «taom».
Bo'lsa agar
sabzi, karam,
Quyvon uchun
katta bayram.
Tutish bo'lsa
hamki qiyin,
Qaldirg'ochga
yoqar chivin.
Lekin neni xush ko'radi,
Bilasizmi Jirafa?

Javob topa olmasdan
O‘ylanarsiz bir hafta.
Nima bilan tirikchilik
qilar tulki?
Sabzi yeydi deb, yana
bo‘lmang kulki.
Yurgandirsiz
siz hayron
Ne yeydi deb
Karkidon.
Ko‘p maqtanmang, bo‘larsiz
so‘zsiz mot.
Ne yeydi deb so‘rasam
Bege mot.
Kechiktirmay
bularni,
Bilib olay
desangiz,
Javob tayyor
agar bizning
Zooparkka
kelsangiz.



NEGA AYIQ HAR MAHAL O‘ZI YOLG‘IZ YER ASAL?

Bir kun o‘rmon so‘qmog‘ida,
Katta bochka quchog‘ida,
Kelayotgan Ayiqvoyni
Quyon ko‘rdi: — Ha, og‘ayni?
— Asalari inin topdim,
O‘lja bilan ortga chopdim.
O‘rmon ahlin mehmon qilay,
Sen ham kelgin, xo‘pmi, g‘ilay!
Ayiq inga tolib keldi,
Ancha asal olib keldi.
Keyin nafas rostlab biroz.
O‘rmondagi u bilan soz
Ko‘ngil yaqin qo‘shnilari —
Do‘stlarining bari-barin
Taklif qildi huzuriga,
Huzuriga — uy to‘riga.
Dasturxonga bochka qo‘yib,
Ayiq dedi: — Yenglar to‘yib.
Asalmisan asal ekan,
Dard ko‘rmaydi undan yegan.
Hammangizdan ortib qolar,
Ko‘p tortinmang, Boyqush xola!
Do‘stlar, sizga hamma bolim,
Salomatlik uchun oling.

Boldan yalab tuflar Bo'ri,
— Buning menga kelmas
to'g'ri.
— Shu yaramas bolmi, hali?
Chaqir edi mehmonlarni
Topib qo'yib suyak oldin,
Qo'y suyagi — mening bolim!
Bug'u gapga aralashdi:
— Tortishuvning bormi gashti?
Har kim suygan o'z ovqati —
O'zi uchun jon rohati.
Yashirmayman, do'stlar, sizdan,
May oyida o't-ildizdan
Maza narsa qayda bo'lar,
Murabbo-ku menga ular!
— Ezmalanding, Bug'u, yomon! —
Tanbeh berar qizilishton,
— Evi bilan so'zla yolg'on.
Bo'lay dedi quloqlar kar.
Ishga solib uzun murting
Totib ko'rsang po'stloq qurtin,
Boshqacha bol kerakmas deb,
Yurar eding doim qurt yeb!
Tipratikan javob berar:
— Qizilishton, vaysash yetar!
Seningcha qurt yesin hamma,
Qurt totlidir bargdan, ammo

DEMAK, HAMMA UXLAB QOLGAN!

Erkalatib Petyavovyni
Odat kunda uyg'otish.
Ammo qiziq, nega bu tong
Eshitilmas hech tovush?!
«Demak, hamma uxlab qolgan!»
Shu o'y kechdi ko'nglidan.
Yordam kutmay ilk bor o'zi,
Sakrab turdi o'rnidan.
Choy baqillab qaynashiga
Dars tayyorlab ulgurdi.
Apil-tapil kiyindi-yu
Maktab tomon yugurdi.
Mana maktab.
Yana qiziq:
Darvoza berk.
Hovli jim?!
«Demak, hamma uxlab qolgan!
Qoyil, hatto muallim!»
«Eng birinchi bo'lib kelding!»
Tabriklar qorovul chol.
«Bugun axir yakshanba-ku,
Endi borib daming ol».

—

DANGASA

Qaltiraydi po'stin kiyib,
Anton darcha yonida.
Shu payt eshik taqilladi,
Do'sti kirdi xonaga.
«Iye, qorni kuramabsan,
Ukalaring o'ynardi.
Hech bo'lmasa pech yoqsang-chi,
Uy isib, choy qaynardi».
— Go'l deysan-a!
Eriydi-ku
Bahor kelganda albat.
Choyga kelsak, qani, o'rtoq,
Men ichaman,
sen qaynat!

—

BALIQCHI

Toma xola, qoyilmisiz,
Bugun rosa ishladim.
Qarang, qancha tillabaliq,
Barin o'zim ushladim.
Kunda ko'lga chopar akam,
Yelkasida to'r, qarmoq.
Bilmaydi u
Akvariumga,
Qarmoq solib xotirjam,
Uyda tutish osonroq!

— 

BIZNING UYDA

Yakshanba kelsa qachon,
Bizning uyda-chi har on,
Hamma birdek
Kitobxon!
Tongdan qilganча shitob
Hamma o'qiydi kitob.
Akam,
Opam,
Dadam,
Oyim
Tin olmay o'qir doim.
Oyim — taqriz bilan band,
Dadam — olimga monand.
Akamga-chi
Hoynahoy
Yaqin hamroh Lev Tolstoy.
Stolda ham,
Divanda ham,
Stulda ham,
Ayvonda ham
Hatto yostiқda qator,
Kitob sochilib yotar.
Dikkens va Nekrasov,
Pushkin, Lermontov, Stasov.

Bari-bari har choqda,
Uyimizda ardoqda.
O'qilmasa gar kitob
Gazeta qo'lda shu tob.
Opam kosmik ke mada
Uchishni orzu qilar.
Hatto Oyga
Bir zumda borib kelar.
Akam
Qo'lida qalam
Bo'lmoqchimish jurnalist.
Kitobni qo'yib chetga,
Otam kavlaydi pochta.
Pochta bo'lmas hech odosh,
O'qir otam ko'tarmay bosh.
Tush mahali yana kitob.
Ko'z yugurar eh, bobma-bob.
Non o'rniga ham,
Osh o'rniga ham,
Choy o'rniga ham,
Xoh kechqurun,
Xoh ertalab
Yana kitob,
Yana kitob!
Uyda o'zim ortiqchaman,
E'tibor yo'q zig'ircha ham.

Tergashadi qimirlasam:
«Jim bo‘l, tentak.
Chalma hushtak.
Bo‘ldi bas, bas,
Olma nafas!»
Televizor qo‘yolmayman,
O‘ynab maza qilolmayman.
Uy emas bu
Sizga aytsam dona-dona:
Qi-ro-at-xo-na!

—

CHO'PCHAGIM CHO'PCHAK

Bulutlarni quvdi shamol,
Ochildi ko'm-ko'k osmon.
Barcha yo'llar eltar ravon
Hayvonot bog'i tomon:
Bog' ichiga kirilganda
Peshtoq bor moviy, marmar.
Unda qator terilgandir
Rangi har xil o'nta shar.
Kolya oldi sharlar sotib,
So'ngra yurdi «Tir» sari.
Eshak ko'zin boplab otib,
Keyin kirdi ichkari.
Rostin aytsak, bu yerga u
Dadasi bilan keldi.
Bog' qo'ynida sayr etdi-yu,
Ajoyib ishlar bo'ldi.
Yog'och niqtab arslonga
Qilishdi tegajaklik.
Minib olib karkidonga
O'ynashar zog'cha, kaklik.
Odamlarga og'zin ochib
Degan kabi begemot:
«Qoldi mening qornim ochib,
Biror narsa tashlab o't!»
Maymun jahlin chiqardi xo'p

Qafasdan turib to‘ti.
Dor o‘ynadi ayiq «hap-ho‘p»,
Atrofni kulgi tutdi.
Bulutlarni quvdi shamol,
Ochildi ko‘m-ko‘k osmon.
Barcha yo‘llar eltar ravon
Hayvonot bog‘i tomon.

Sirdan go‘yo beozor —
Mushukka o‘xshar o‘zi.
Mo‘yqalamdek shoxi bor,
Javdirab turar ko‘zi.
Ammo do‘q urma zinhor
Unga: «Pisht!» deb darrov sen.
Bilib qo‘y, bu jonivor,
Yirtqich hayvon! —

(Silovsin).

Uni masxara qilar —
Barcha qush,
Baqa,
Ilon.
U sho‘rlikda
Na uy bor,
Na uya,
Na oshiyon.
Yashar yeri
Ko‘k o‘rmon,

Qo'shiq aytar
Bearmon.
Kuylaydi:
Kuk-ku!
Kuk-ku!
Bu qushning nomi —
(Kakku).

U pashshaga qo'yar tuzoq,
Izg'ib burchakma-burchak.
To'rsimon in to'qir har choq,
Uning oti —
(O'rgimchak).

Yil bo'yi nurdan qochib,
Yerni teshib, yo'l ochib,
Yer qa'rida saqlar jon.
Bu nimadir? —
(Ko'rsichqon).

Na oyoq, na qo'lim bor,
Sehrgarlar menga yor.
Hindlar meni tanishar,
Muqaddas deb sanashar.
Arqon kabi buralib,
Yerda chaqqon sudralib,
Duch kelganni chaqaman,
Ko'zoynak ham taqaman.
Meni kim ko'rsa

Shu on —
Der: ko‘zoynakli —
(*Ilon*).

Yelkamda turar uyam,
Olib yuraman har dam.
Shoshmasdan tashlab qadam,
Uzoq yashayman, bardam.
Toshdek uyam hayvonlardan
Meni qilar himoya.
Cho‘l qushidek yilda bir bor
Qumda bosaman moyak.
Neman o‘zi?
Chig‘anoqmi?
Tuvaloqmi?
Yo baqa?
Qani top-chi? —
(*Toshbaqa*).

Bu kichik,
Jajji hayvon,
Quvnar, bersang —
Uvoq non.
Chunki u
Kechga qadar
Inida
Pisib yotar.
Berkinadi

Mushukdan,
Vovillagan
Kuchukdan,
Yashirinar
Kirpidan,
Suv ilondan,
Tulkidan.
Nima ekan?
Bu hayvon?
Javob ber tez! —

(Sichqon).

Bu — epchil uy hayvoni,
Hamma bilar bu hayvonni.
Dov-daraxtga chiqar chaqqon,
Go'shtni sevar
Bu shumshuk.
Undan faqat qo'rqar sichqon...
Topdingizmi?
Bu —

(Mushuk).

Dahshatlidir u juda,
Yashar dengiz tubida.
Quloqsiz,
Tangasiz u,
Nihoyatda xasis u.
Ko'rsa baliq galasin

Darhol yoyar panjasin.
Yonidan olar tappa.
Ildizli to'nkasimon —
Ko'rinar senga biroq —
Qo'l bilan tutish gumon...
Nima bu? —

(Sakkizoyoq).

Bamisoli tonggi zar
Suv tagida yarqirar.
Kichik-kichik oq billur —
Ko'zlaridan yog'ar nur.
O'rnidan tez ko'chadi,
Go'yo suvda uchadi.
Suzadi xuddi qayiq.
Tinimsiz oltin —

(Baliq).

Qichqirar shovqin solib...
Ne u qaddin tik tutib,
Tongda sayragan dadil?
Kimni u zor-zor kutib
Chaqiradi astoydil.
Balki bulbul xushovoz?
Yo'q deysanmi?
Juda soz!
Yo'qsa ne ekan? —

(Xo'roz).

Ham ayyor-u,
Ham epchil.
Bunday o'g'rini
Top-chi.
Uchrasa
Kurkami, g'oz,
Ko'tarib qolar
Shovvoz.
Bir vaqt
Dakang xo'rozim
«Hiρ» bo'g'ildi
Ovozi.
Bir otsam
O'q tegmadi.
Lekin bo'yin
Egmadim.
Otdim,
Bo'lmadim kulgi.
O'qdan quladi —
(Tulki).

Baland bo'y, olachi por,
Bo'yni juda ham uzun.
Daraxt bargiga xumor
Yaproq yeb topar huzur,
Zooparkda gerdayishin
Qo'ymaydi sira-sira.

Burni go‘yo karnaydir,
Nomi bo‘lsa —
(Jirafa).

Na buqa va na bug‘u,
Hindistonda yashar u.
Tumshug‘i shoxdor hayvon.
Nimadir bu? —
(Karkidon).

Yelkasida
Ignasi.
Kirpining
O‘zginasi!
Cho‘chib bo‘ri
Va yo‘lbars,
Yaqiniga
Yo‘lamas.
Cho‘llarda
Yashar tanho.
Yurti —
O‘rta Osiyo.
O‘zi hurpaygan,
Qara!
El uni atar —
(Jayra).

Boshi uzra pat-toji
Barq urar ajabtovur,
Yelpig'ichsimon dumi
Kamalakday tovlanur.
Go'zal jannat qushi deb
Nom taratgan jonivor,
Uni ko'rmoqchi bo'lsang,
Hayvonot bog'iga bor.
Bu nima? Kurka, tovuq?
Bilsang,
Aytaqol, Munis,
— Shoshmang, hozir aytaman,
Bu qushning oti —

(Tovus).

U shunday:
Yo'lda turar.
Oyog'i
Qalt-qalt titrar.
Sekingina
Deydi: — Mo'-o'!
Tanamni
Bosdi qo'rquv.
Chigirtka
Qo'rqitar, boq!
Men-chi hali,
Yosh —

(Buzoq).

Chirq-chirq!
Chirq-chirq!
Bolalar,
Bo'ling ogoh!
Men yuraman
Tez ko'chib
Daraxt uzra
Shoxma-shox.
Rostin aytsam
Ertalab
Tutib yedim
O'nta qurt.
Yuribman
Yana ochqab,
Qo'ng'iz ovlab
Tutma-tut.
Chirq-chirq!
Chirq-chirq!
Shoxda yashayman
Ochiq.
Na zog'man,
Na chug'urchuq.
Men sizga
Tanish —

(Chumchuq).

Taq-taq-taq!
Taq-taq-taq!

Qalaysan, e man daraxt?
Tongdan
To oqshomgacha
Eman bag‘rin
O‘yaman.
Har kun qanchadan qancha
Qumursqa yeb —
To‘yaman!
Tezroq top,
Og‘aynijon,
To‘g‘ri, men? —
(Qizilishton).

To‘shakdek yo‘l-yo‘l o‘zi,
Sen ham uning yuz-ko‘zin
Sirdan ko‘rib hoynahoy,
Dersan: «Muncha yoqimtoy!»
Ha, u qafasda hozir.
Lekin doim bo‘l ogoh!
Aslida u mug‘ambir —
Mushukdek sapchir nogoh.
Shu bilan gapim ham bas!
Qani ayt, nima? —
(Yo‘lbars).

Ajab qo‘sh o‘rkachim bor,
O‘rkachki, misli ombor.
Undagi oziq-ovqat

Yetti oqshomga yetar.
Mendagi sabr-toqat
Egamni xushnud etar.
Me'damda — qo'sh oshqozon,
Kezi kelsa begumon
Qoraqum sahrosin ham
Aylanib chiqqum bardam.
Shu vajdan, inson zoti —
Sevar chidamli, deya.
Bilsangiz, mening otim:
Ikki o'rkachli —

(Tuya).

Zap shalpanq qulog'i bor,
O'zi xo'p itoatkor.
Bahaybat bo'lmasa ham,
Fildek yuk tashir, bardam.
Supurgidek dumi bor,
Lablari baxmal jonvor.
Ye mishi beda, suli,
O't-o'lan joni-dili.
Qishda esa yer xashak.
Quyong emas bu... —

(Eshak).

Ovcharkadek ding quloq,
Tishlari o'tkir, so'yoq.
Qo'yni ko'rsa, u ayyor —

G'ajib ketishga tayyor.
Ko'rsa otib tashlaydi
Cho'ponlarning har biri...
...Ba'zan ulish boshlaydi...
Men topaymi? Shum —
(Bo'ri).

Go'yo shohona tojdek,
Boshga kiyib olgan shox.
Qorli yaylov joni-qalbi...
Tayga bo'lsa hammayoq...
U g'izillab yeldek chopar,
Qahraton sovuqda ham.
Tashir gazeta, xat-xabar,
Qishloqma-qishloq ildam.
Nanaylarga, evenklarga
Tinmay xizmat qilar u.
Qoyil qolay topganlarga...
— Men topaman. Bu —
(Bug'u).

Tumshuqlari
Qayrilgan.
Ko'zlari
Katta-katta.
U uchib
Tuni bilan,
Kunduz uxlari

Daraxtda.
Nega uxlar
Kunduzi,
(Bormi unda
es-u, hush?)
Qanday jonivor o'zi,
Kim javob berar? —
(Boyqush).

Bulutlarni
Quvdi shamol,
Ochildi ko'm-ko'k osmon.
Barcha yo'llar
Eltar ravon
Hayvonot bog'i tomon.

—

KIM SUVNI QANDAY ICHADI?

— Kim suvni
Qanday ichar?
Qani, qani,
Bolalar,
Kim menga
Ayta olar,
Kimning zehni
Tezuchar?
Odammi u,
Yoki fil,
Yo arslonmi —
Zo‘r, badfe‘l,
Barra, suvsar,
Musicha,
Bari suvsar,
Suv ichar.
Kim suvni
Qanday ichar?
Qani, qani,
Bolalar,
Kim menga
Ayta olar,
Kimning zehni tezuchar?

O'ylang, marhamat,
Bir zum,
Yo'qsa, aytaman o'zim.
Xushdir, shaffof
Suv jilvasi.
Ohuga bor
Tog' jilg'asi.
Arg'umoq
Daryo kechar.
Ko'krakni
Katta kerib,
Ariqdan
Qo'zi ichar,
O'mganin
Yerga berib.

O'rmon qizi —
Olmaxon
Shudring suvin
Har nahor
Bargchani
Kosa qilib,
Ichadi
Maza qilib.
Yurib
Pana-pastqamda,

Birday
Qora oqshomda,
O'g'riday
Asta pisib
Bo'rivoy —
Dumi qisiq —
Tili bilan
Suv yalar,
Ichini
It timdalar.

Tuya bor-ku,
Nortuya.
Ichi gum-gum
G'or tuya,
Shu jonivor
Suvsasa
Sarhovuz ham
Bir kosa
Suv o'rniga
O'tmaydi.
So'ng
Sakkiz kunlab
Rosa
Bir qultum
Suv
Yutmaydi.

Qaldirg' och
Qancha soyu
Jilg'adan
Uchib o'tar,
Uchib o'tgach
Kiroyi
Chummaklab
Ichib o'tar.

Ayiqvov —
To'ni pahmoq,
Hayiqmay
Aytsam: — Ahmoq!
Uzun qish
Chiqmay birrov,
So'radi
Panjasini
Ham anqov u,
Ham yalqov,
Tark etmas
Tanchasini.

Kitni
Eshitganmisan?
Unga suv
Emas pisand.
Ermak uchun

Ozgina
Ochib qolsa
Og'zini,
Shunday katta
Dengizning
Suvi qurib
Qoladi.
Ko'r baliqning,
Esiz deng,
Sho'ri qurib
Qoladi.

To'ng'iz-ku
Xo'rillaydi,
Qurbaqa
Qurillaydi.
Qush suv ichsa —
Nafosat.
Kit ichishi —
Arosat.
Xullas, suv
Ichishda ham
Kerak fahmu
Farosat.

Qo'ng'izlar
Qanday ichar?

Qancha ichar
Qumursqa?
Tulki shum,
Echki o'jar,
Suv ichishi ham
Qiziq-a?
Laylak, oqqush
Ham kakku
Suv ichishsa
Kerak-ku?
Xo'sh, ular
Qanday ichar?
Qani, qani,
Bolalar,
Kim menga
Ayta olar,
Kimning zehni
Tezuchar?!

— 

MUNDARIJA

SHUNDAY BIR O'LKA BOR.....	3
SO'Z.....	4
TUN KUYI.....	5
URUSH BILMASIN BOLALAR.....	6
MAHLYOMAN SENGA, VATANIM.....	7
MANGU OLOV HAQIDA.....	8
JONLI VELOSIPED.....	8
QIYNALIB TOPILGAN NON.....	9
KETAYOTGAN TUN.....	10
BUXORO QOVUNI.....	11
O'RDAKCHA.....	12
LOLALAR.....	13
NINA DALAGA BORDI.....	14
PIYOZ.....	15
PINGVIN.....	16
TIRIK PANJARA.....	17
TIPRATIKON.....	18
QO'ZICHOQ.....	19

YALQOV.....	20
BILIB OLAY DESANG.....	22
NEGA AYIQ HAR MAHAL O'ZI YOLG'IZ YER	
ASAL?.....	25
DEMAK, HAMMA UXLAB QOLGAN!.....	28
DANGASA.....	29
BALIQCHI.....	30
BIZNING UYDA.....	31
CHO'PCHAGIM CHO'PCHAK.....	34
KIM SUVNI QANDAY ICHADI?.....	48

Adabiy-badiiy nashr

BORIS PAK

**CHO'PCHAGIM
CHO'PCHAK**

She'rlar, topishmoqlar



Muharrir **Abdurahmon Akbar**

Rassom **Shuhrat Odilov**

Texnik muharrir **Yelena Tolochko**

Musahhiha **Shahnoza Nabixo'jayeva**

Bosishga ruxsat etildi 22.08.2007. Bichimi 60×84¹/₁₆. Akadem garniturası. Shartli b.t. 3,5. Nashr b.t. 2,68. 500 nusxada. Shartnoma № 120-2007. Buyurtma № . Bahosi kelishilgan narxda.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi texnika va dasturlar bazasida chop etildi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.